

GURNA POETIKASIDA MEROS, XOTIRA VA POSTKOLONIAL ONG

Saydamatova Dilafrō'z Xamidullo qizi

NamDU 2-boshqich tayanch doktoranti

Email: dilafruzsaydamatova97@gmail.com

Tel: +998908501122

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17875408>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurazzoq Gurnaning *“Memory of Departure”*, *“Paradise”*, *“Admiring Silence”* va *“By the Sea”* romanlarida mustamlakachilik merosining *“daxshat”* (“nightmare”) sifatida talqin qilinishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yozuvchining postkolonial identitet, madaniy gibridlik, tarixiy xotiraning buzilishi va migratsion ruhiy iztiroblar kabi mavzularni qanday badiiy shakllantirishi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Shuningdek, Gurnaning yondashuvi Frants Fanon, Albert Memmi, Homi Bhabha kabi nazariyotchilarning qarashlari bilan solishtiriladi.

Key words: Abdurazzoq Gurna, mustamlakachilik, daxshat, postkolonial identitet, madaniy gibridlik, tarixiy xotira.

HERITAGE, MEMORY AND POSTCOLONIAL CONSCIOUSNESS IN GURNA'S POETICS

Abstract. This article analyzes the interpretation of colonial heritage as a “nightmare” in Abdulrazak Gurnah’s novels *“Memory of Departure,” “Paradise,” “Admiring Silence,”* and *“By the Sea.”* The study examines how the author artistically represents themes such as postcolonial identity, cultural hybridity, the fragmentation of historical memory, and the psychological trauma of migration. Furthermore, Gurnah’s approach is compared with the theoretical perspectives of Frantz Fanon, Albert Memmi, and Homi Bhabha.

Key words: Abdulrazak Gurnah, colonialism, nightmare, postcolonial identity, cultural hybridity, historical memory.

НАСЛЕДИЕ, ПАМЯТЬ И ПОСТКОЛОНИАЛЬНОЕ СОЗНАНИЕ В ПОЭТИКЕ ГУРНЫ

Аннотация. В данной статье анализируется трактовка колониального наследия как «кошмара» в романах Абдураззака Гурны *«Memory of Departure»*, *«Paradise»*, *«Admiring Silence»* и *«By the Sea»*. В исследовании освещается художественное воплощение таких тем, как постколониальная идентичность, культурная гибридность, фрагментация исторической памяти и миграционные психологические травмы. Кроме того, подход Гурны сопоставляется с теоретическими взглядами Франца Фанона, Альберта Мемми и Хоми Бхабха.

Ключевые слова: Абдураззак Гурна, колониализм, кошмар, постколониальная идентичность, культурная гибридность, историческая память.

Kirish.

XX asr oxiri Angliya-Sharqiy Afrika adabiyotida Abdurazzoq Gurnaning oʻrni keskin yuksaldi. Uning romanlari madaniy almashinuv, mustamlakachilikning ruhiy oqibatlari, merosning ambivalent mazmun kasb etishi, shuningdek, immigratsiya tufayli yuzaga kelgan “begonalik” kechinmalarini badiiy aks ettirishi bilan ajralib turadi. Gurnaning ijodi koʻpincha

Sharqiy Afrikaning murakkab etnik-madaniy tarixini qayta talqin qiluvchi postkolonial adabiyot vakillari bilan bir qatorda ko'riladi.

Philip Whyte ta'kidlaganidek, Gurnaning asarlari merosni nafaqat faxr manbai, balki "daxshatli yuk" sifatida ham ko'rsatadi, chunki mustamlakachilikdan qolgan siyosiy-ijtimoiy tartibsizlik individual hayotlarda ham, milliy xotirada ham jarohat qoldirgan.

Asosiy qism.

Gurna romanlarida mustamlakachi obrazining "ota-hokimiyat" sifatida talqin qilinishi Frants Fanonning mustamlakachilik psixologiyasi haqidagi fikrlari bilan mos keladi. Mustamlakachi subyekt kolonizatsiya qilingan jamiyatning ongiga chuqur singib ketgan hukmron tafakkurni shakllantiradi [1].

Gurnaning *"Admiring Silence"*[2] romanidagi:

"We surrendered not only our lives to them but also our minds."[2,35].

Tarjimasi: *"Biz nafaqat hayotimizni, balki ongimizni ham ularga bo'ysundirdik"* jumlasini aynan Fanon tasvirlagan "psixik qaramlik" holatini eslatadi.

Michel Foucaultning "diskurs va hokimiyat" haqidagi konsepsiyasi postkolonial tadqiqotlarda ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki Foucault nazarida hokimiyat faqat kuch ishlatish yoki siyosiy nazorat orqali emas, balki bilim ishlab chiqarish, uni tartibga solish va muomalaga chiqarish orqali ham amalga oshadi. Diskursni kim nazorat qilsa, u nafaqat haqiqatning qanday talqin qilinishini, balki odamlarning o'zlari va o'tmishlari haqidagi tasavvurlarini ham shakllantiradi. Mustamlakachilik sharoitida aynan shu jarayon eng sezilarli bo'lgan: G'arb olimlari va ma'murlari yaratuvchi bo'lgan tarixiy matnlar, darsliklar, xaritalar, geosiyosiy tavsiflar mahalliy xalqlarning o'z tarixini qanday ko'rishini tubdan o'zgartirib yuborgan.

"By the Sea" [3] romanida Gurnaning qahramoni ana shu Foucault ta'kidlagan jarayonning bevosita qurboni sifatida namoyon bo'ladi. Saloh ingliz tilidagi darsliklarni varaqlarkan, ularda tasvirlangan Sharqiy Afrika tarixi deyarli doimo "naqadar qoloq, tartibsiz va sivilizatsiyaga muhtoj" tarzda ko'rsatilganini ko'rib iztirobga tushadi. U ingliz tarix darsliklarida "bizning tariximizning xunuk va haqoratli suratlari bor edi" deya e'tirof etadi. Natijada qahramonning o'z vatani haqidagi tasavvuri ham, o'z-o'zini idrok etishi ham G'arb tomonidan yozilgan, G'arb tomonidan qabul qilingan va G'arb tomonidan tasdiqlangan "haqiqat" orqali shakllanadi.

Bu jarayon Foucaultning nazariyasida "diskursiv hokimiyat" deb ataladi: kim tarixni yozsa, kim haqiqiy bilim sifatida tan olinadigan ma'lumotni ishlab chiqsa – hokimiyat ham unda bo'ladi. Solihning shikoyati ham aynan shundan kelib chiqadi: uning o'z tarixiga oid bilimlari emas, balki "inglizlarning dunyo haqidagi hikoyasi bizni yaratgan", ya'ni ularning matnlari mustamlaka subyektining kimligini belgilab bergan.

Gurna bu holatni juda nozik psixologik tasvirlaydi: mustamlaka ostida yashagan avlod G'arb darsliklarini rad etishga urinsa ham, ular ong ostiga chuqur singib ketgan "ko'zgu" vazifasini bajaradi. Natijada mahalliy xalqlar o'z tarixiga "o'z ko'zi bilan emas, balki mustamlakachining ko'zi orqali" qarashga majbur bo'ladi. Bu "ichki kolonizatsiya"ning eng chuqur shakli bo'lib, Fanon tomonidan tasvirlangan "kolonial psixika" bilan hamohangdir.

Demak, *"By the Sea"*dagi epizod Foucault nazariyasining amaliy badiiy timsolidir: mustamlakachilik kuchi - bu harbiy yoki siyosiy kuch emas, avvalo bilimni kim ishlab chiqayotganida, kimning hikoyasi "haqiqat" sifatida qabul qilinayotganida. Solih o'z tarixining G'arb tomonidan buzib ko'rsatilganini ko'rganda, u aslida kolonial diskursning eng chuqur

darajadagi hukmronlik mexanizmini anglaydi: tarix sizniki bo'lsa ham, uni siz yozmagansiz - shu sababli u sizga emas, siz uning ichida yaratilgansiz.

Maqolada *“Paradise”* romanidagi savdo karvonlari timsoli Sharqiy Afrikaning tarixiy qudratini esga soluvchi obraz sifatida talqin etiladi. Ulkan karvonlarning madaniy-iqtisodiy nufuzi “Yevropalik kuchlarning kirib kelishi bilan barbod bo'lgan meros” sifatida ko'rsatiladi [4]. Abdalla qahramonining:

“Endi hech qanday safarlar bo'lmaydi - Yevropaliklar hamma yerda.”[4,186] degan so'zlari tarixiy uzilishning og'riqli ramzidir.

Whyte ta'kidlaganidek, Gurnaning romanlarida meros masalasi (uy, mol-mulk, nasl) Sharqiy Afrika jamiyatining siyosiy-ijtimoiy inqirozini ramziy tarzda ifodalaydi. *“By the Sea”* romanida Solihning merosi ustida ketgan kurash mustamlakachilikdan qolgan “huquqiy bo'shliq”ni aks ettiradi: ingliz qonuni ishlaymaydi, shariat qonuni esa siyosiy bosim ostida o'z kuchini yo'qotgan.

“Admiring Silence” asaridagi qahramon Angliyaga moslashgan bo'lsa-da, u o'z asl kimligini “ixtiro qilishga” majbur bo'ladi. U inglizlarga yoqish uchun “imperiya haqidagi ertaklar”ni to'qib chiqaradi. Whyte buni “mag'lubiyatning belgisi” sifatida sharhlaydi [5]. Bu jarayon Homi Bhabhaning “gibridlik zonasi” haqidagi qarashlarini eslatadi, ammo Gurna Bhabha yoki Rushdie kabi gibridlikni ijobiy ko'rsatmaydi. Aksincha, gibridlik - yo'qotilgan “uy”ning alomati.

Whyte ta'kidlaganidek, Abdurazzoq Gurnaning romanlarida boshpanasizlik (rootlessness) fenomeni faqat mustamlakachilikning bevosita natijasi sifatida talqin qilinmaydi; aksincha, u XX-XXI asr global tartibsizliklari bilan chambarchas bog'langan universal hodisaga aylanadi. Gurnaning qahramonlari orasida Sharqiy Afrika mustamlaka merosining qurbonlari bilan bir qatorda, tarixiy zo'ravonliklar va etnik tozalash oqibatida vatansiz qolgan yahudiy oilalari, Sharqiy Yevropada siyosiy realliklar o'zgarishi bilan bir necha marta “fuqaroligi almashtirilgan” ruminialiklar, hamda 1990-yillar mojarolaridan so'ng ko'chirilgan kosovoliklar ham uchraydi. Whyte bu holatni “boshpanasizlikning globallashuvi” sifatida baholaydi: zamonaviy dunyoda o'z yurtida begona bo'lib qolish - ma'lum bir etnos yoki geografiyaga xos muammo emas, balki butun insoniyatning umumiy fojiasidir.

Gurna postkolonial adabiyot doirasida an'anaviy “mustamlakachi - mustamlaka qilingan” ziddiyatini kengaytirib, insoniyat tarixidagi migratsiya, deportatsiya va diasporik ongning murakkabligi haqida universal badiiy tahlil olib boradi. Shu ma'noda uning ijodi Homi Bhabhaning “madaniy o'tish zonaları” yoki Paul Gilroy fikridagi “Black Atlantic” kabi konsepsiyalardan ham kengroq - Gurnada fojia milliy hududlarda emas, insoniyatning umumiy tajribasida joylashgan. Mustamlaka tarixi faqat bir boshlang'ich nuqtadir; asosiy drammatizm esa odamning o'z uyidan, o'z zamonidan, o'z ildizidan ajralib qolganini his qilishida.

Rachel va Saleh o'rtasidagi ruhiy aloqani Whyte “Gurnaning umidga yo'g'rilgan global etikasi” sifatida baholaydi: bu yerda umid milliy g'alaba yoki siyosiy tiklanishdan emas, balki iztiroblar birligidan tug'iladi. Shunday qilib, Gurna postkolonial adabiyotda ko'p uchraydigan “qarama-qarshilik modeli”ni buzadi va uni global hamjihatlik, o'zaro tan olish, boshqalarning dardini anglash orqali tiklanish kabi g'oyalar bilan boyitadi.

Natijada, boshpanasizlik Gurna romanlarida shunchaki yo'qotish emas, balki “yangi etik aloqadorlik” paydo bo'lishi uchun zarur bo'ladigan o'tish bosqichi sifatida talqin qilinadi. Rachel va Saleh o'rtasidagi yaqinlik - aynan shunday etik uyg'onishning badiiy timsolidir.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Abdurazzoq Gurnaning romanlari mustamlakachilik merosini oddiy tarixiy zulm yoki o'tmishdagi siyosiy jarohat sifatida emas, balki bugungi global beqarorlikning ildizlarini ham belgilab beruvchi, shaxsiy va milliy xotirani izdan chiqaruvchi murakkab jarayon sifatida talqin qiladi. Gurnaning badiiy olamida meros tushunchasi o'zining an'anaviy ma'nosidan kengayib, avlodlar-avlodga o'tadigan moddiy boylik yoki tarixiy xotira emas, balki mustamlakachilikdan qolgan ruhiy jarohatlar, ijtimoiy parokandalik va migratsion uzilishlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yozuvchi o'z romanlarida, bir tomondan, mustamlakachilikning individual ongda qoldirgan psixologik izlarini ochib beradi: hukmron madaniyatning diskursiv kuchi ostida shakllangan o'zlik inqirozi, o'tmish bilan sog'lom aloqa o'rnatolmaslik va mustamlakachi tomonidan yaratilgan tarixiy talqinlarning mahalliy ongni zabt etishi uning asosiy mavzularidan biridir. Ikkinchi tomondan, Gurna oilaviy meros va milliy meros o'rtasidagi qiyosiy parallellarni yoritadi: avlodlar o'rtasida yer, uy yoki ijtimoiy maqom uchun kurash qanday parokandalik keltirsa, millatlarning o'z tarixiy merosini yo'qotishi ham xuddi shunday ichki inqirozlarni yuzaga keltiradi.

Uchinchidan, migratsiya va begonalik holati Gurnaning qahramonlari ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Ular nafaqat geografik hududni, balki o'z xotira landshaftini ham yo'qotadilar; ana shu jarayon ularning zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topish imkoniyatini murakkablashtiradi. Mustamlakachilikdan keyingi sharoitda shakllangan gibrid identitet esa yozuvchi uchun ikkita madaniyat o'rtasida yashashning psixologik ziddiyatlarini ko'rsatish imkonini beradi: na butunlay qabul qilingan, na butunlay rad etilgan madaniy holat doimiy ichki taranglikni yuzaga keltiradi.

Shu bois Gurna ijodida meros - bu faqat o'tgan davrning esdaliklari, tarixiy ulug'vorlik yoki ajdodiy faxr emas. Aksincha, u "daxshatli yuk" sifatida tasvirlanadi: inson ongiga bosim qiluvchi, avlodlararo uzilishlar va global migratsiya oqibatlarini o'zida jamlagan, zamonaviy insoniyatning umumiy fojeiy tajribasiga aylangan fenomen sifatida talqin etiladi. Yozuvchi nazarida merosning ana shunday murakkab va ko'p qatlamli tabiatini anglamasdan turib, na postkolonial jamiyatlarning, na global dunyoning hozirgi holatini to'liq tushunish mumkin emas.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Fanon F. *Black Skin, White Masks*. London: MacGibbon & Kee, 1968.
2. Gurnah A. *Admiring Silence*. London: Hamish Hamilton, 1996.
3. Gurnah A. *By the Sea*. New York: The New Press, 2001.
4. Gurnah A. *Paradise*. New York: The New Press, 1994.
5. Foucault M. "Orders of Discourse". *Social Science Information*, 1971.
6. Bhabha H. *The Location of Culture*. London: Routledge, 1994.
7. Rushdie S. *In Good Faith*. Cambridge: Granta, 1990.
8. Whyte P. "Heritage as Nightmare: the Novels of Abdulrazak Gurnah". *Commonwealth Essays and Studies*, 27.1, 2004.
9. Memmi A. *The Coloniser and the Colonised*. Boston: Beacon Press, 1965.
10. Gurnah A. *Memory of Departure*. New York: Grove Press, 1987.